



## "TALIBAN" POLICY OF PASHTUNIZATION AND ITS IMPACT ON REGIONAL SECURITY

*Abidjan Abdurakhmanov*

*foundation doctoral student*

*Tashkent University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [obidjonabdurahmonov13@gmail.com](mailto:obidjonabdurahmonov13@gmail.com)*

---

### ABOUT ARTICLE

---

**Key words:** ISIS, polyethnic, Baloch, Turkmen, Nuristani, Pamiri, "Northern Alliance", Inclusive Government, "Lashkar-e Mansuri", suicide terrorists.

**Received:** 11.05.23

**Accepted:** 13.05.23

**Published:** 15.05.23

**Abstract:** This article analyzes the specific characteristics of relations between different ethnic groups in Afghanistan, which is considered a polyethnic state, their position in power, and the effect of the Taliban's Pashtunization policy on regional security. Also, the Pashtunization policy of the Taliban in Afghanistan, which is recognized as the connecting bridge of the South and Central Asian region, has an impact on relations with neighboring countries such as Pakistan, Iran, Tajikistan and Uzbekistan. It is worth noting that one of the main threats to the stability of multi-ethnic states in the countries of the world is the constant feeling of ownership of political power by representatives of different nationalities. That is why it is important to put into practice the issue of giving legal status to the procedure of gaining power of ethnic groups. It is emphasized that without improving inter-ethnic relations and ensuring the full participation of representatives of different nationalities and peoples in the social processes in the conditions of a multi-ethnic state, it is impossible to achieve an all-round renewal of society's life, and to accelerate the processes of modernization and democratization.

---

**“TOLIBON” HARAKATINING PUSHTUNLASHTIRISH SIYOSATI VA UNING  
MINTAQAVIY XAVFSIZLIKKA TA’SIRI****Obidjon Abdurahmonov***tayanch doktoranti**Toshkent sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O‘zbekiston**E-mail: [obidjonabdurahmonov13@gmail.com](mailto:obidjonabdurahmonov13@gmail.com)*

---

**MAQOLA HAQIDA**

---

**Kalit so‘zlar:** IShID, polietnik, baluj, turkman, nuristoniy, pomiriy, “Shimoliy Alyans”, Inklyuziv hukumat, “Lashkar-e Mansuri”, xudkush-terrorchilari.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada polietnik davlat hisoblanadigan Afg‘onistonda turli xil etnoslar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, hokimiyatda tutgan o‘rni va toliblarning pushtunlashtirish siyosatining mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, Janubiy va Markaziy Osiyo mintaqasining bog‘lovchi ko‘prik sifatida e’tirof etiladigan Afg‘onistonda toliblarning pashtunlashtirish siyosatining olib borishi Pokiston, Eron, Tojikiston va O‘zbekiston singari qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, dunyo mamlakatlarida ko‘p millatli davlatlarning barqarorligiga rahna soluvchi eng asosiy tahdidlardan biri turli-xil millat vakillarining mamlakatda siyosiy hokimiyatga egalik qilish hissining doimiy xarakterga ega ekanligi bilan baholanadi. Shu bois ham etnoslarning hokimiyatga egalik qilish tartibiga huquqiy maqom berish masalasini amaliyotga joriy qilish muhim o‘rin yegallaydi. Ko‘p millatli davlat sharoitida etnoslararo munosabatlarni takomillashtirmay, turli millat va elat vakillarining ijtimoiy jarayonlardagi to‘laqonli ishtirokini ta’minlamay turib, jamiyat hayotining har tomonlama yangilanishiga, modernizatsiya va demokratlashtirish jarayonlarining ildamlashishiga erishish mumkin emasligi ta’kidlanadi.

---

**«ТАЛИБАНСКАЯ» ПОЛИТИКА ПУШТУНИЗАЦИИ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА  
РЕГИОНАЛЬНУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ****Абиджон Абдурахманов***базовый докторант**Ташкентский университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан**E-mail: [obidjonabdurahmonov13@gmail.com](mailto:obidjonabdurahmonov13@gmail.com)*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** ИГИЛ, полиэтнические, белуджские, туркменские, нуристанские, памирские, «Северный альянс», Инклюзивное правительство, «Лашкар-э Мансури», террористы-смертники.

**Аннотация:** В данной статье анализируются особенности отношений между различными этническими группами в Афганистане, считающемся многонациональной страной, их положение во власти и влияние политики талибов на региональную безопасность. Также на отношения с соседними странами, такими как Пакистан, Иран, Таджикистан и Узбекистан, влияет политика пуштунизации Афганистана, признанного связующим мостом региона Южной и Центральной Азии. Стоит отметить, что одной из главных угроз стабильности полиэтничных государств в странах мира является устойчивое чувство собственности на политическую власть представителей разных национальностей. Вот почему важно реализовать на практике вопрос о придании правового статуса порядку владения властью этническими группами. Подчеркивается, что без совершенствования межэтнических отношений и обеспечения полноценного участия представителей разных национальностей и народов в социальных процессах в условиях многонационального государства невозможно добиться всестороннего обновления жизни общества, и ускорить процессы модернизации и демократизации.

---

**KIRISH**

Afg'oniston polietnik (ko'p elatli) mamlakat bo'lib, bir necha asrlardan beri u yerda turli-xil etnik guruhlar istiqomat qilib keladi. Mamlakat aholisining turli etnoslardan tashkil topganligi har qanday davrda, har qanday sharoitda va har qanday hukumat oldiga etnoslararo konfliktlarni kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, hokimiyatda barcha etnik guruhlarining manfaatlari kafolatlash kabi shartlarni qo'yadi. Zeroki, mamlakatda kelib chiqqadigan har qanday etnik nizo ayrim qo'shni yirik davlatlarning siyosiy manfaatlariga zid hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, etnoslararo mojarolarni oldinli olish maqsadida sobiq Afg'oniston Islom Respublikasi Konstitutsiyasining to'rtinchi moddasida davlatning milliy tarkibi va 14 ta etnik guruh tilga olinadi: "Afg'onistondagi milliy suverenitet xalqqa tegishli bo'lib, bevosita saylangan vakillar orqali amalga oshiriladi. Afg'oniston millatini Afg'oniston fuqoroligiga ega bo'lgan barcha shaxslar tashkil etadi. Afg'oniston millatiga pushtunlar, tojiklar, hazoralar, o'zbeklar, turkmanlar, baluchlar, pashoiylar, nuristoniylar, aymoqlar, arablar, qizilboshlar, gujar brahui va boshqa

qabilalar kiradi. “Afg‘on” atamasi afg‘on xalqining har bir fuqarosiga tegishli. Afg‘on xalqidan hech biri Afg‘oniston fuqaroligidan mahrum emas. Fuqarolik va boshpana bilan bog‘liq masalalar qonun bilan tartibga solinadi”, deb belgilab qo‘yilgan edi. Ammo, toliblarning hokimiyatni qo‘lga kiritib, amaldagi hokimiyat ag‘darilgandan keyin vaziyat tamomila o‘zgardi. Avvlgı hukumat tomonidan amalga oshirilgan bir qator ishlar o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Jumladan, Afg‘oniston Islom Respublikasining asosiy qonuni bo‘lgan konstitutsiya bekor qilindi.

### ASOSIY QISM

Maqolaning maqsadi Afg‘onistondagi turli xil etnoslarning afg‘on ijtimoiy-siyosiy hayotidagi tutgar roli va bir etnik guruhning mutlaq ustunligining mintaqaviy xavsizlikka ta’sirini ochib berishdan iborat. Maqsaddan kelib chiqqan holda, etnoslararo munosabatlarning hokimiyatda ulushi, etnoslararo munosabatlarga oid qarashlar, etnoslarning huquqiy asoslari, etnoslararo munosabatlarning siyosiy jihatlarini asoslash vazifalar sifatida belgilab olindi.

Maqolada tarixiylik, tizimli-mantiqiy, kontent va qiyosiy usullardan foydalanildi.

Markaziy Osiyo mintaqasi bilan chegaradosh Afg‘onistonda millatlararo munosabatlar jarayonida hamjihatlikni ta’minlash nafaqat davlatning taraqqiyot sari qadam bosishida, balki mintaqada davlatlari bilan o‘zaro hamkorligini yuksaltirishda hamda mintaqada xavfsizlikni ta’minlashda nihoyatda zarur masala ekanligini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, Janubiy va Markaziy Osiyodagi mintaqada davlatlaridan tashqari Afg‘onistondagi millatlararo munosabatlarning bugungi holati bilan ham bog‘liqdir. Zeroki, Afg‘onistonda mustaqil Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zbek, tojik, turkman, qirg‘iz, hazora, baluj kabi millatlari istiqomat qilishini inobatga olish zarur. Shu jihatdan Afg‘onistondagi millatlararo munosabatlarda etnik nizolar va etnik guruhlar o‘rtasidagi hududiy bo‘linishlar mintaqada davlatlariga ta’sir etmasdan qolmaydi.

Afg‘oniston pushtunlari mamlakatdagi eng katta etnik guruh sifatida mamlakat aholisining 42%-45%ini tashkil etadi. Boshqa etnik guruhlariga nisbatan son jihatdan ko‘p ekanligi ularga davlat boshqaruvida katta mavqega ega bo‘lish imkonini beradi. Ammo, etnoslararo totuvlik va hamjihatlikni ta’minlash demokratik davlat sharoitida davlatning ichki va tashqi siyosatini izchil va kuchli bo‘lishini talab qiladi. Bundan tashqari, Qo‘shma Shtatlar va G‘arb davlatlarinig Afg‘oniston zaminidan harbiylarini olib chiqib ketishi natijasida hokimiyat “Tolibon” harakati qo‘liga o‘tishi oqibatida mamlakatdagi etnoslararo munosabatlar holati keskin o‘zgardi. Boshqa tomondan, tarixi, madaniyati, an’ana va urf-odati bir-biriga yaqin turli xil millat va etnos vakillari: tojiklar, hazoralar, o‘zbeklar ham Afg‘onistondagi yirik etnik guruhlar sifatida o‘z mavqeiga ega bo‘lib, davlat boshqaruvida ularning ham manfaatlarini hisobga olishlik talab etiladi. Mazkur masala Afg‘oniston sobiq hukumatida (Ashraf G‘ani rahbarligidagi) ma’lum ma’noda e’tiborga



olingan edi. Jumladan, Ashraf G‘aning birinchi vitse-prezidenti sifatida Afg‘onistonlik o‘zbeklardan Abdurashid Do‘stum, ikkinchi vitse-prezidenti sifatida hazoralardan Sarvar



Donishni tayinlangani qolaversa, ona tomondan tojik, ota tomondan pushtun millatiga mansub bo‘lgan Abdulloh Abdullohning o‘zaro kelishuv asosida milliy yarashish masalalari bo‘yicha Oliy Kengash raisi bo‘lgani ham davlat boshqaruvida turfa etnos vakillarining manfaatlari hisobga olinganidan dalolat beradi. Ammo, Afg‘onistonda davlat boshqaruvi toliblarning qo‘liga o‘tishi natijasida boshqa etnoslarning davlat boshqaruvidagi ishtirokiga keskin ta’sir o‘tkazdi. Jumladan, toliblar tomonidan e’lon qilingan vaqtinchalik hukumat tarkibining o‘ttiz nafarini pushtunlar tashkil qilishi, Afg‘oniston tojiklari va o‘zbeklari uchun hukumatdan faqat uchta o‘rin berilishi,

hazoralarning esa umuman hukumat ishlaridan chetda qolishi ham yangi hukumatda pushtunlarning roli yuqori ekanligidan dalolat beradi. Hazoralarning davlat boshqaruvidan chetda qolishi esa bevosita Eron Islom Respublikasi manfaatlariga zid hisoblanadi. Bunga bir qator sabablar mavjud.

Xususan, “Shimoliy Alyans” bilan aloqador va g‘oyalarning ehtimoliy tarafdori bo‘lishi mumkin bo‘lgan hazoralarni tergovsiz va hatto shariat sudisiz qatl qilinishi hamda 1998-yilda “Tolibon” harakati jangarilari Eronning Mozori Sharif shahridagi konsulligiga hujum qilishi va natijada u yerda bo‘lgan Eronning sakkiz diplomati va bitta jurnalisti qatl qilinishi shuningdek, “Tolibon” jangarilari tomonidan Bomiyon viloyatida hazoralar yetakchisi Abdul Ali Mazoriyga atab qo‘yilgan yodgorlikni yo‘q qilinishi Tehron va “Tolibon” o‘rtasidagi munosabatlarni urush yoqasiga kelib qolishiga sabab bo‘ldi. Bugungi kunda toliblarning pushtunlashtirish siyosatini davom ettirayotganligi sababli hazoralarning manfaatlari e‘tibordan chetda qolishi oqibatida Eron-“Tolibon” munosabatlarida keskinlik saqlanib qolmoqda.

“Tolibon” harakati vakillari e‘lon qilingan vaqtinchalik hukumat tarkibida Afg‘oniston tojiklari uchun hukumatdan faqat uchta o‘rin berilishi mamlakatdagi ikkinchi eng katta etnik guruhi hisoblanib, mamlakat aholisining 25%ini tashkil etadi. Ular asosan Afg‘onistonning shimoli-janubiy viloyatlarida yashashadi va dariy hamda tojik tillarida so‘zlashishadi. Afg‘oniston tojiklari pushtunlar bilan siyosiy hokimiyatda boshqaruvni qo‘lga olish borasida o‘zaro raqobat olib borgan etnik guruh hisoblanadi. Xususan, toliblar tomonidan hokimiyatni qo‘lga kiritgan dastlabki davrida (1996-2001-yillar) boshqa etnik gurhlar singari Afg‘oniston tojiklariga nisbatan ham o‘ta keskin munosabatda bo‘ladi. Shu sababli tojiklar toliblarning asosiy raqobatchisi bo‘lgan “Shimoliy Alyans”ning harbiy-siyosiy kuchlarining asosini tashkil qilgan. “Shimoliy Alyans” Afg‘oniston shimoli-sharqidagi Panjshir vodiysida faoliyat olib bordi. Nyu-York va Vashingtondagi 11-sentabr hujumlaridan keyin “Shimoliy Alyans” AQShning Afg‘onistondagi asosiy ittifoqchisi bo‘lib xizmat qilgan va 2001 yilning kuzida toliblarni mag‘lub etishda muhim rol o‘ynagan.

Bugungi kunda “Tolibon” hokimiyatni ikkinchi marotaba egallab olganidan so‘ng eksi adovat yana avj oldi. Bu safargi pashtun-tojik etnik guruhlari o‘rtasidagi konflikt Dushanbe rasmiy hukumati tomonidan toliblarning olib borayotgan sa‘y-harakatlarini keskin tanqid qilinishi mojaroning ancha keskin ekanligidan dalolat beradi. Afg‘oniston bilan 1300 kilometrlik chegara yaqinida Rossiya boshchiligidagi Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT) a‘zolari qo‘shinlari bilan birgalikda harbiy mashg‘ulotlar o‘tkazilishidan asosiy ko‘zlangan maqsad ham toliblar bilan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy mojaroga tayyor turish va Afg‘oniston tojiklarinini qo‘llab-quvvatlashidan dalolat beradi.

O‘z navbatida, “Tolibon” harakati vakillari ham Afg‘onistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegarasi bo‘ylab taxminan 4000 jangchini joylashtirganligi ham garchi “Tolibon” harakati rasmiylari bu harakat mintaqa barqarorligiga hissa qo‘shishini ta’kidlashsa-da ikki tomonlama munosabatlarning jiddiy ekanligini ko‘rsatib qo‘ydi. Toliblarning Afg‘onistonning shimoli-sharqidagi Badaxshon va Taxor viloyatlarida “Lashkar-e Mansuri” nomi bilan tanilgan xudkush-terrorchilar batalyonlarini ham joylashtirgani Tojikistondagi xavotirlarni kuchaytirdi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda Afg‘oniston zaminida tinchlik va barqarorlik ta’minlanishi o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. AQSh, Rossiya, Xitoy kabi yirik davlatlarning siyosiy ta’siriga tushib qolmaslik yoki mavjud ta’sir doirasidan chiqib ketishda mintaqa davlatlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, mavjud konfliktlarga barham berish, bir maqsad yo‘lida yakdil qarorlar qabul qilish muhim o‘rin kasb etadi. Shu sabali ham Afg‘onistonda sodir bo‘layotgan har qanday voqea va hodisa, toliblarning bugun va kelgusida qabul qiladigan har qanday qarori va olib boradigan faoliyati mintaqaning istiqbolini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, Afg‘onistondagi etnik mojarolarning hal etilishi, inklyuziv hukumatni tashkil etilishi nafaqat afg‘on xalqi uchun balki butun mintaqa taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abubakar Siddique. Hostilities Grow Between Taliban And Tajikistan Amid Border Closure, Truck Seizures. (May 19, 2022). <https://www.rferl.org/a/afghanistan-taliban-tajikistan-border-truck-seizures/31858508.html>
2. Abdurahmonov O.N. Afg‘oniston pushtunlari. TDSHU, – T.: 2021. B – 11.
3. Abdurahmonov O.N. “Afg‘oniston Islom Respublikasi Konstitutsiyasi” tarjima kitobi. –T.: 2021. – B. 5.
4. Barfiel, Tomas. Afghanistan’s ethnic puzzle. The article of Bonn University. <http://search.ebscohost.com.libproxy.unh.edu/login.aspx?direct=true&db=buh&AN=64464655&site=ehost-live>
5. Примакова Е.М. Взятие Кабула и установление талибами своей власти фактически над всей территорией Афганистана добавили ещё одну порцию головных болей в круговороте проблем Ирана. <https://ru.valdaiclub.com/a/highlights/smogut-li-irantsy-i-taliby-dogovoritsya/>